

**Oriental Journal of Philology****ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE INTERPRETATION OF HISTORICAL REALITY THROUGH TRAGEDY AND CHRONICLE IN ENGLISH DRAMA****Olimjon Ortikovich Dadaboyev**

Associate Professor, PhD

Namangan State Institute of Foreign Languages

[o.dadaboev@mail.ru](mailto:o.dadaboev@mail.ru)

Namangan, Uzbekistan

**ABOUT ARTICLE**

**Key words:** Renaissance, English drama, historical drama, historical tragedy, chronicle, Christopher Marlowe, William Shakespeare, psychologism, national consciousness, political struggle, dramatic conflict, divine justice, historical thinking.

**Received:** 01.01.26**Accepted:** 02.01.26**Published:** 03.01.26

**Abstract:** This article examines the rise of historical themes in English Renaissance drama, focusing in particular on the works of Christopher Marlowe and William Shakespeare, and analyzes the formation of the historical drama genre along with its artistic and philosophical development. It demonstrates that through historical tragedies and historical chronicles, dramatists portrayed history not as a mere sequence of events, but as a complex arena shaped by human will, moral choice, and political struggle. In Marlowe's plays, history is interpreted through the prism of powerful individual will and tragic confrontation, whereas in Shakespeare's works it is presented in harmony with the ideas of divine justice, national unity, and the complexity of the human soul. The article also offers a comprehensive discussion of the moral-educational, political, and aesthetic functions of historical drama.

**INGLIZ DRAMATURGIYASIDA TARIXIY VOQELIKNING TRAGEDIYA VA XRONIKA ORQALI TALQINI****Olimjon Ortiqovich Dadaboyev**

Namangan davlat chet tillari instituti dotsenti, PhD

[o.dadaboev@mail.ru](mailto:o.dadaboev@mail.ru)

Namangan, O'zbekiston

**MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** Uyg'onish davri, ingliz dramaturgiyasi, tarixiy drama, tarixiy  
**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Uyg'onish davri ingliz dramaturgiyasida

tragediya, tarixiy xronika, Kristofer Marlo, Uilyam Shekspir, psixologizm, milliy ong, siyosiy kurash, dramatik konflikt, ilohiy adolat, tarixiy tafakkur.

tarixiy mavzuning yuksalishi, xususan Kristofer Marlo va Uilyam Shekspir ijodi misolida tarixiy drama janrining shakllanishi, uning badiiy va falsafiy kamoloti tahlil etiladi. Tarixiy tragediyalar va tarixiy xronikalar orqali dramaturglar tarixni oddiy voqealar ketma-ketligi sifatida emas, balki inson irodasi, axloqiy tanlov va siyosiy kurashlar kechadigan murakkab makon sifatida tasvirlaganliklari ko'rsatib beriladi. Marlo dramalarida tarix kuchli individual iroda va fojiali qarama-qarshiliklar prizmasida talqin etilsa, Shekspir asarlarida u ilohiy adolat, milliy birlik hamda inson qalbinin murakkabligi bilan uyg'un holda yoritiladi. Shuningdek, maqolada tarixiy dramalarning ma'naviy-tarbiyaviy, siyosiy va estetik vazifalari ham keng gamrovda ochib beriladi.

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИСТОРИЧЕСКОЙ РЕАЛЬНОСТИ ЧЕРЕЗ ТРАГЕДИЮ И ХРОНИКУ В АНГЛИЙСКОЙ ДРАМАТУРГИИ

**Олимжон Ортикович Дадабоев**

Доцент, PhD

Наманганский государственный институт иностранных языков

[o.dadaboev@mail.ru](mailto:o.dadaboev@mail.ru)

Наманган, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Ренессанс, английская драма, историческая драма, историческая трагедия, хроника, Кристофер Марлоу, Уильям Шекспир, психологизм, национальное самосознание, политическая борьба, драматический конфликт, божественная справедливость, историческое мышление.

**Аннотация:** В данной статье анализируется возрастание роли исторической тематики в английской драматургии эпохи Возрождения, в частности на примере творчества Кристофер Марло и Уильям Шекспир, а также формирование жанра исторической драмы и его художественно-философская эволюция. Показано, что посредством исторических трагедий и исторических хроник драматурги изображали историю не как простую последовательность событий, а как сложное пространство, в котором разворачиваются человеческая воля, нравственный выбор и политическая борьба. В драмах Марло история осмысливается сквозь призму мощной индивидуальной воли и трагических конфликтов, тогда как в произведениях Шекспира она интерпретируется в гармонии с идеями божественной справедливости, национального единства и сложной внутренней природы человека.

Кроме того, в статье всесторонне раскрываются нравственно-воспитательные, политические и эстетические функции исторической драмы.

---

**Kirish.** Angliyada Uygʻonish davriga kelib, ingliz dramaturgiyasi eng yuksak taraqqiyot bosqichiga koʻtariladi. Aynan shu davrda dramatik adabiyotda tarixiy mavzu yetakchi oʻrin egallab, dramaturgiyaning asosiy yoʻnalishlaridan biriga aylanadi. Tarixiy tragediyalar va tarixiy xronikalar janrlarining shakllanishi hamda izchil rivoji esa mazkur davr dramaturgiyasining badiiy qudrati va intellektual salohiyatini belgilab beruvchi muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Tarixiy dramalar odatda ikki asosiy turga boʻlinadi:

1. Tarixiy tragediyalar — real tarixiy hodisalarga tayangan holda yaratilsa-da, tragediya janrining badiiy-meʼyoriy talablariga muvofiq qurilgan sahna asarlari.
2. Tarixiy xronikalar — voqealarni xronologik izchilikda yorituvchi, millat va davlat tarixini dramatik shaklda aks ettiruvchi asarlar boʻlib, ular maʼlum darajada tarixiy-maʼlumot manbai vazifasini ham bajaradi.

Asosiy qism. Uygʻonish davrida tarixiy drama faqat diniy-axloqiy gʻoyalarni targʻib etish vositasi boʻlib qolmay, balki inson shaxsiyati, iroda erkinligi va siyosiy munosabatlarni chuqur tadqiq etish imkonini beradigan dramatik makonga aylandi. Aynan shu jarayonda adabiy tarixda muhim oʻrin tutgan siymolardan biri — Kristofer Marlo boʻlib, u tarixiy tragediya janrining shakllanishiga asos solgan dramaturg sifatida eʼtirof etiladi.

Marlo oʻz ijodida tarixiy voqealarni realistik, psixologik va falsafiy yondashuv bilan talqin etgan dramaturg sifatida ajralib turadi. U tarixni inson irodasi, siyosiy kurash va fojiali tanlovlar maydoni sifatida tasvirlaydi. Uning dramalarida tarix shaxs va tizim, iroda va taqdir, inson va siyosiy zarurat oʻrtasidagi tinimsiz toʻqnashuvlar maydoni sifatida namoyon boʻladi.

Marloning tarixiy mavzudagi ilk dramasi — “Buyuk Tamerlan” (“Tamburlaine the Great”) — Markaziy Osiyolik buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur hayotiga asoslangan tarixiy fojidadir. Asarda Temurning oddiy choʻpondan dunyo hukmdorigacha boʻlgan hayot yoʻli fojeaviy pafos bilan yoritiladi. Dramaturg Temur shaxsiyati orqali Uygʻonish davridagi “titan inson” — yaʼni oʻzida ulkan aql, iroda, iqtidor va ambisiyani mujassam etgan shaxs timsolini yaratadi. Bu personaj nafaqat oʻz zamonasini, balki tarixni ham qayta shakllantira oladigan “superinson” sifatida talqin qilinadi.

Marloning yana bir muhim tarixiy tragediyasi — “Parijdagi qirgʻin” (“The Massacre at Paris”) — Fransiyadagi 1572-yilgi Varfolomey kechasi voqealariga bagʻishlangan. Ushbu asarda fanatizm, diniy zoʻravonlik, siyosiy manfaat va ikkiyuzlamachilik keskin tanqid qilinadi. Marlo

bu dramada siyosiy realizmni ko'rsatish bilan birga, tarixiy voqealar orqali inson qalbidagi ziddiyatlarni va kuchlar kurashini tadqiq etadi.

Marloning dramatik uslubida tarixiy voqealar to'g'ridan-to'g'ri bayon qilinmaydi, balki dramatik obrazlar va ularning ichki fojialarini ochish orqali tarix falsafiy va psixologik mohiyat kasb etadi. Uning tarixiy qahramonlari — Temur, Giz, Faust — barchasi ichki ziddiyatlar, ulkan istaklar va titanik iroda sohibi shaxslardir. Ular real insonlardan farqli ravishda tarixi yo'nalishini o'zgartirishga qodir titanlar sifatida ko'rsatiladi. Shu bilan birga, ular taqdir, ilohiy adolat yoki umumiy tarixiy zarurat oldida muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Bu fojia — ulug' shaxsning qulashi, lekin u faqat halokat emas, balki ma'naviy yuksalishning bir shakli sifatida ko'rsatiladi.

Marlo tarixiy materialni axloqiy ibrat yoki diniy g'oyalarni ilgari surish uchun emas, balki insoniy iroda, siyosiy kurash va mavjudlikning fojiaiy mohiyatini namoyon etish uchun qo'llaydi. Shu bois, Marlo asarlaridagi tarixiy shaxslar qat'iy ijobiy yoki salbiy emas. Ular murakkab, qarama-qarshi xususiyatlarga ega to'liq dramatik tipajlardir. Bu esa tarixni o'zining ko'pqirraliligi, ziddiyatli mohiyati bilan ko'rsatishga xizmat qiladi.

Marlo tarixiy xronikalardan farqli ravishda tarixni xronologik voqealar yig'indisi sifatida emas, balki markaziy dramatik mojaro orqali shakllantirilgan tragediya shaklida ifoda etadi. Shu bilan birga, uning dramalarida personajlarning psixologik motivatsiyasiga katta e'tibor qaratilgan: tarixiy voqealar qahramonlarning ichki dunyosi orqali tadqiq qilinadi. Bu individualizm g'oyasi Uyg'onish davri insonparvarlik falsafasining bevosita badiiy ifodasi bo'lib xizmat qilgan.

Marloning tarixi faqat o'tmish voqealarini bayon etish emas, balki o'z zamonasi muammolarini ham tahlil qilish vositasiga aylanadi. Mutaharrik hokimiyat, diniy nizolar, siyosiy zo'ravonlik va davlatchilik muammolari Marlo dramalarida zamonaviy ijtimoiy-madaniy dolzarblik bilan uyg'unlikda berilgan.

Kristofer Marlo tarixiy tragediya janrini badiiy va falsafiy jihatdan takomillashtirish orqali Uilyam Shekspir dramaturgiyasi uchun mustahkam poydevor yaratdi. Uning obraz yaratish metodi, monologlar orqali qahramon ichki dunyosiga chuqur kirib borish mahorati va tarixiy voqealarga ijtimoiy-mustaqil yondashuvi Shekspirning "Richard II", "Genrix IV", "Richard III" kabi tarixiy pyesalarida o'z ifodasini topdi.

Kristofer Marlo Uyg'onish davri ingliz dramaturgiyasida tarixiy mavzuni yangi bosqichga olib chiqqan dramaturg sifatida tarixga kirdi. U tarixiy tragediya janrini yaratib, dramaturgiyada real shaxs, kuchli individual, irodali va ziddiyatli qahramonlar orqali tarixni inson ruhi va fojiaiy to'qnashuvlar maydoni sifatida ko'rsatishga erishdi. Uning dramatik konsepsiyasi orqali tarix faqat o'tmish haqidagi tasvir emas, balki inson tafakkuri va ongining ko'zgusiga aylandi.

O'rta asrlar so'ngi va Uyg'onish davrida tarixiy dramalar nafaqat adabiy, balki siyosiy va mafkuraviy ahamiyat kasb eta boshladi. Bu janr orqali mualliflar milliy o'ziga xoslik, davlatchilik

g'oyalari va shaxsning tarixiy jarayondagi o'rmini dramatik ifodada namoyon etdilar. Tarixiy xronikalar janrida Kristofer Marlo va Uilyam Shekspirning dramatik merosi alohida o'rin tutadi. Ularning asarlari orqali tarix badiiy falsafa va dramatik tafakkur ob'yektiga aylandi.

Marlo qalamiga mansub "Edvard II" dramasi tarixiy xronika janridagi murakkab va chuqur dramatik tahlil namunasidir. Asarda podsho shaxsiyati va uning shaxsiy hayoti siyosiy fitnalar, davlat idorasidagi ziddiyatlar bilan o'zaro bog'lanib, fojiali tarzda tasvirlanadi. Marlo bu asarida tarixiy shaxslarning psixologiyasi, ehtirolari va shaxsiy tanlovlarini falsafiy-ma'naviy kontekstda tahlil etadi. "Edvard II" – shaxs bilan tarix o'rtasidagi murakkab va hal qiluvchi dramatik ziddiyatning namoyon bo'lishi sifatida qayd etiladi.

Uilyam Shekspirning tarixiy xronikalari esa janrni epik ko'lamdagi dramatik voqelikka aylantirdi. Uning tarixiy dramalari umumiy ma'noda bir-biri bilan bog'langan siklni tashkil etib, Plantagenetlar sulolasining yuksalishi va qulashini, feodal nizolardan millat birligiga o'tish jarayonini qamrab oladi. Bu xronikalar nafaqat tarixiy voqealarni tasvirlashga, balki ingliz davlatchiligi g'oyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Shekspir o'z xronikalarida Xolinhshed va Xoll kabi tarixnavislarning tarixiy manbalaridan foydalangan holda tarixiy haqiqat va badiiy talqin o'rtasidagi muvozanatni mahorat bilan saqlaydi. U tarixiy voqealarni dramatik ta'sir kuchini oshirish uchun qayta ishlaydi, shaxslar xarakterini teran psixologizm bilan boyitadi. Haqiqiy shaxslardan obrazlar yaratish orqali u tipik dramatik xarakterlar shakllantiradi.

Shekspir tarixiy shaxslarni faqat siyosiy funksiyaga ega bo'lgan shaxslar sifatida emas, balki inson ruhiyatining teran va murakkab qatlamlarini aks ettiruvchi obrazlar tariqasida yaratadi. Misollar:

“Richard III” — shaxsiy nuqson va ichki yovuzlik o'rtasidagi dramatik uyg'unlik; Richardning ichki monologlari orqali yovuzlik psixologiyasi tadqiq etiladi.

“Genrix IV” — uzurpatsiya orqali taxtga chiqqan shohning ichki qiynoqlari, qonuniylik muammosi va voris tarbiyasi masalalari.

“Genrix V” — shaxsiy o'sish, voyaga yetish va podshoh sifatidagi mas'uliyatni anglashning dramatik shakldagi ifodasi.

“Richard II” — hokimiyatdan ayrilgan podshohning ichki ma'naviy uyg'unishi, siyosiy shaxsdan insonga aylanish jarayoni.

Shekspirning qahramonlari ko'pincha shaxsiy "men" va ommaviy obraz o'rtasidagi qarama-qarshilikda yashaydilar. Bu ichki ziddiyat dramaning asosiy fojiali potensialini tashkil etadi. Monologlar, metaforalar orqali ichki kechinmalar estetik ifodaga ega bo'ladi.

Shekspir xronikalaridagi asosiy g'oya — milliy birlik, davlatchilikning mustahkamligi va qonuniy hokimiyatning zarurligidir. U bu orqali Tyudorlar sulolasining siyosiy barqarorligini

asoslash, xalqni fuqarolar urushi fojiasidan ogohlantirish va Angliyaning tarixiy o'zligini ulug'lashga harakat qilgan. Tarix, bu yerda, xalq va elita o'rtasidagi munosabatni tarbiyalash vositasi sifatida ham xizmat qilgan.

Kristofer Marlo va Uilyam Shekspir tarixiy xronikalar orqali ingliz tarixini faqat tasvirlaganlar emas, balki uni dramatik badiiy tadqiq ob'yektiga aylantirdilar. Marlo shaxs va tarix o'rtasidagi to'qnashuvni fojiali dramatismda tadqiq qilgan bo'lsa, Shekspir tarix orqali millat, davlat va inson tabiatini keng miqyosda yoritdi. Ularning ijodida tarixiy drama — ma'naviy, siyosiy va estetik tadqiqot vositasiga aylandi. Shekspir xronikalari orqali tarixning nafaqat tashqi voqealar, balki inson qalbining dramasi ekani isbot etildi.

Uilyam Shekspir va uning zamondoshlari qalamiga mansub tarixiy dramalarda faqat sodir bo'lgan voqealarning tasviri emas, balki tarix orqali axloqiy-etik masalalarni yoritishga intilish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu dramalarda adolat va zolimlik, hukmdorning qonuniyligi, hokimiyatning haqiqiy manbai, podshohning xalq oldidagi mas'uliyati kabi murakkab axloqiy muammolar dramatik shaklda ifoda etilgan.

Shekspirning tarixiy dramalarida hukmdor shaxsini faqat tarixiy figura sifatida emas, balki axloqiy qarorlar qabul qiluvchi ma'suliyatli sub'yekt sifatida talqin etish tendensiyasi namoyon bo'ladi. Masalan, Genrix IV va Richard II asarlarida hokimiyatga erishish yo'li va uni qonuniy asosda saqlab qolish masalasi muallif tomonidan fojiali tarzda tahlil etiladi. Bu jarayonda dramaturg qahramonlarning ichki muammolari va irodaviy tanlovlarini tasvirlash orqali ularni axloqiy tizim kontekstida baholaydi.

Shekspir tarixga aksar hollarda providensial, ya'ni ilohiy reja nuqtai nazaridan yondashadi. Uning xronikalarida tarix — bu Xudo tomonidan belgilangan adolat mezonlarining hayotda ro'yobga chiqish jarayonidir. Yovuzlik albatta jazolanadi, zolim podshohlar taqdiran yengiladi, ma'naviy muvozanat tiklanadi. Bu qarash Richard III kabi dramalarda ayniqsa yorqin ifoda etilgan — asar syujetida Richardning o'z qiladigan jinoyatlari orqali ilohiy intiqom mukammal tarzda amalga oshadi va yaxshilik ustuvor maqomga ko'tariladi.

Providensial qarash, shuningdek, xalq irodasi va hokimiyat munosabati orqali ham ifodalanadi. Dramaturg xalqni ilohiy adolatning bir qismi, uni amalga oshiruvchi omil sifatida namoyon etadi. Xalqning qahramonlar faoliyatiga munosabati, ularning muhokamalari va sudlari — bularning barchasi tarixiy jarayonning odilona va ezgu natijaga yo'naltirilishiga xizmat qiladi.

Uilyam Shekspir tarixiy voqealarni bayon qilishda an'anaviy xronologik-didaktik uslubdan butunlay farqli ravishda yangicha adabiy yondashuvni namoyon etdi. U tarixni endi faktik ma'lumotlar to'plami emas, balki tirik va dinamik ijtimoiy jarayon, shaxslar va omma o'rtasidagi murakkab munosabatlar, siyosiy intrigalar, ichki ziddiyatlar va axloqiy sinovlar maydoni sifatida

tasvirlaydi. Bu bilan Shekspir tarixiy dramaturgiyada individuallik, iroda va fojiali tanlovlar konsepsiyasini mustahkamladi.

Shuningdek, uning dramalarida tarixiy xarakterlar – tipajlar yaratish usuli ham shakllangan. Uning tarixiy qahramonlari bir vaqtning o'zida real shaxslarga asoslangan va universal xarakterlar tarzida badiiylashtirilgan obrazlardir. Bu obrazlar orqali tarixning muayyan qonuniyatlari va insoniyatning umumiy axloqiy muammolari namoyon etiladi.

Boshqa tarafdin, tarix endi bir vaqtning o'zida o'tmish haqidagi xikoya emas, balki muallif o'z davriga mulohazakorona baho berishi, fuqarolik pozitsiyasini bildirishi, hozirgi muammolarga tarbiyaviy va estetik ta'sir ko'rsatish vositasiga aylandi.

Uyg'onish davrida ingliz dramaturgiyasida tarixiy mavzu o'zining eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Ayniqsa, Shekspir tomonidan yaratilgan tarixiy dramalar nafaqat ingliz adabiyoti, balki butun jahon madaniyati uchun tamoyilbop adabiy maktabni vujudga keltirdi. Bu maktab tarixiy voqealarni badiiylashtirishda dramatik konflikt, psixologizm, axloqiy tanlov va fojiali tugatish kabi elementlardan keng foydalanish orqali zamonaviy tarixiy roman va drama an'alarining shakllanishiga zamin yaratdi.

Shu bilan birga, Shekspir tarixiy shaxslarning shaxsiy taqdiri orqali butun millat, jamiyat va davlatchilikning falsafiy mohiyatini tadqiq qildi. Shuning uchun ham uning asarlari tarixning faqat o'tmish emas, balki doimiy ravishda kayta ifodalanadigan ma'naviy jarayon ekanligini ko'rsatuvchi badiiy hujjatlar vazifasini o'taydi.

O'rta asrlar va Uyg'onish davridagi ingliz dramaturgiyasida tarixiy mavzular alohida badiiy va g'oyaviy ahamiyatga ega bo'lib, dramatik san'atning shakllanishida hal qiluvchi o'rin tutdi. Bu davrda tarixiy voqealar diniy-axloqiy mazmunda talqin etilib, avvalo, xalqni ma'naviy tarbiyalash, dinga ishonchni mustahkamlash va tarixiy ibrat berishga xizmat qilgan. Mirakl va misteriya janrlarida tarix muqaddas afsona sifatida sahnalashtirilgan bo'lsa, xronika dramalarida u milliy va siyosiy ongini shakllantirish vositasiga aylandi.

Kristofer Marlo dramaturgiyasi tarixni faqat ilohiy irodaning ifodasi emas, balki shaxs, iroda va siyosiy kurashning to'qnashuvi sifatida ko'rsatishga yo'naltirildi. U tarixiy shaxslarni real insonlardan titanik qahramonlarga aylantirib, fojiali drama orqali tarixiy jarayonlarni inson qalbi, tanlov va mas'uliyat nuqtai nazaridan tadqiq qildi.

**Xulosa.** Uilyam Shekspir esa tarixiy dramaturgiyani yuksak estetik va falsafiy bosqichga olib chiqdi. U o'z xronikalarida shaxs va davlat, adolat va zolimlik, qonun va hokimiyat, iroda va taqdir, xalq va elita o'rtasidagi dramatik ziddiyatlarni mahorat bilan tasvirladi. Shekspir tarixni ilohiy reja va milliy birlik nuqtai nazaridan talqin etar ekan, shaxsning ichki dunyosi, psixologik murakkabligi va axloqiy tanlovlari orqali tarixiy jarayonlarni keng qamrovda yoritdi.



Shu tariqa, ingliz tarixiy dramaturgiyasi, ayniqsa, Marlo va Shekspir ijodi orqali, tarixiy voqealarni faqat xronologik hodisalar sifatida emas, balki dramatik falsafa, ma'naviy izlanish va ijtimoiy fikrning ifodasi sifatida namoyon etdi. Bu an'ana nafaqat zamonaviy ingliz va jahon dramaturgiyasi, balki tarixiy tafakkurning shakllanishiga ham ulkan ta'sir ko'rsatdi. Shu sababli, tarixiy drama janri ingliz adabiyotida faqat badiiy forma emas, balki ijtimoiy-axloqiy tahlil vositasi, millat ongining ifodasi sifatida o'ziga xos ahamiyat kasb etdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Дадабоев О. Ғарб ва Шарқ адабий контекстида Амир Темур тарихий шахси талқини. – Тошкент: “Академия”, 2019.
2. Комарова В. П. Личность и государство в исторических драмах Шек-спира. Л. : Изд-во Ленинград. ун-та, 1977. 224 с.
3. Ландер Дж. Р., Войны роз/ пер. с англ. А. А. Кралиной. - СПб. : Филологический факультет СПбГУ; Нестор-История, 2013. - с. 233 – 246
4. Gairdner J., History of the life and reign of Richard the Third : to which is added the story of Perkin Warbeck. From original documents, by James Gairdner. London: Longmans Greene & Co., 1878. - с. 331 – 419.
5. Hurd R., Letters on Chivalry and Romance, A. Millar, W. Thurlbourn, and J. Woodyer, 1762 – с. 13 – 14, 27 – 29.
6. Potter J., Good King Richard, Bloomsbury Reader, 2014.